

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
Г.М.Хошимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudonazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat,urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Муртозоев	
Вижагиҳои савтӣ ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Феруза	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этникӣ-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Мачитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони чомӣ	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



UO'K:175181

INGLIZ TILIDA SIYOSATCHILAR NUTQIDA STILISTIK VOSITALARNING NUTQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA QO'LLANILISHI**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В РЕЧИ ПОЛИТИКОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ РЕЧЕВОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ****THE USE OF STYLISTIC TOOLS IN THE SPEECH OF POLITICIANS IN ENGLISH AS A MEANS OF INCREASING SPEECH EFFECTIVENESS**

Komilova Gulbahor Abdumuxtor qizi 
Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilidagi siyosiy nutqlarda stilistik vositalarning nutqning ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyatini tadqiq etadi. Tadqiqotda siyosatchilar metafora, anafora, parallelizm, ritorik savol va giperbola kabi stilistik vositalardan qanday foydalanishi tahlil qilinadi. Bu vositalar nafaqat nutqni esda qolarli qilishga, balki tinglovchilarning hissiyotiga ta'sir ko'rsatish va ularni ma'lum bir qarashlarga yo'naltirishga xizmat qilishi ko'rsatib beriladi. Maqola taniqli siyosatchilarning nutqlaridan misollar keltirgan holda, bu vositalarning ommani ruhlantirish, birlashtirish va motivatsiya qilishdagi o'rini yoritadi.

Аннотация

В этой статье исследуется важность стилистических средств в англоязычном политическом дискурсе для повышения эффективности речи. В исследовании анализируется, как политики используют такие стилистические средства, как метафора, анафора, параллелизм, риторический вопрос и гипербола. Показано, что эти инструменты служат не только для того, чтобы сделать речь запоминающейся, но и для того, чтобы воздействовать на эмоции аудитории и направлять ее к определенным точкам зрения. В статье освещается роль этих инструментов в вдохновении, объединении и мотивации масс, приводятся примеры из выступлений известных политиков.

Abstract

This article explores the importance of stylistic tools in English-language political discourse in increasing the effectiveness of speech. The study analyzes how policymakers use stylistic tools such as metaphor, anaphora, parallelism, rhetorical question, and hyperbola. These tools are shown to serve not only to make speech memorable, but also to influence the emotions of the audience and direct them to certain points of view. The article highlights the role of these tools in inspiring, uniting and motivating the masses, giving examples from the speeches of famous politicians.

Kalit so'zlar: Siyosiy nutq, stilistik vositalar, nutq ta'sirchanligi, metafora, anaphora, parallelism, ritorik savol, giperbola, siyosiy kommunikatsiya

Ключевые слова: Политическая речь, стилистические средства, речевая выразительность, метафора, анафора, параллелизм, риторический вопрос, гипербола, политическая коммуникация

Key words: Political speech, stylistic tools, speech impressiveness, metaphor, anaphora, parallelism, rhetorical question, hyperbola, political communication/

KIRISH

Tilshunoslikning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan stilistika o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Stilistika (yunoncha "stylos" — yozuv asbobi), ya'ni uslubshunoslik, tilshunoslikning bir qismi sifatida til uslublarini tadqiq qiladi. U tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so'z yasalishi va sintaksis darajalarida sinxron va diaxron nuqtai nazardan funksional tabaqalanganligini va o'ziga xos tomonlarini o'rganadi. Shuningdek, stilistika adabiy tilning turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida hamda ijtimoiy hayotning har xil sohalarida qo'llanish qoidalari va usullarini tavsiflaydi. Stilistik tahlilda parallel sinonimik til ifodalari orasidagi manoviy va ekspressiv nozikliklar hamda til birliklarining o'zaro munosabatdosh variantlari o'rganiladi. Bunday variantlar orasidan aniq nutqiy vaziyatga mos keladiganini tanlab olish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilning stilistik qurilishi, ma'lum funksional uslublar orqali aniq nutqiy vazifalarni bajarishga imkon beradi, bunda nutq yurituvchilar muloqot ishtirokchilarini ma'lum fikr-mulohazalarga yo'naltiradilar va muloqot samarali hamda ta'sirchan kechishini ta'minlaydilar. Shu tarzda, muloqotdan kutilgan maqsadga erishiladi va o'zaro tushunuvchanlik yuzaga keladi. Stilistik vositalar nafaqar ko'chma ma'noni ifodalaydi, balki insonning tafakkurini ham o'zida aks ettiradi. Nutqda metafora, anaphora, giperbola, takrorlash kabi stilistik vositalardan foydalanish, sitatalar keltirish, ritorik savollar berish ham ijobiy natijalarga olib keladi. Tilning tasviriy vositalari emotsianallikni oshiradi. Unga bezaklar beruvchi troplarining qo'llanishi nutq ta'sirchanligini qay darajada ekanini ko'rsatib turadi.[1,86] Barcha tillarda bo'lgani kabi ingliz va o'zbek tilida ham nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi stilistik vositalar mavjud va bu vositalar yordamida insonga ta'sir qilish, uni ma'lum bir faoliyatga undash har ikki tilda kuzatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda siyosiy diskursning o'rni, o'ziga xos jihatlari va siyosiy diskursning matn, nutq va ularning shakllanishi, ifodalanishi, ta'sirchanligi va samaradorligi haqida to'xtalib o'tamiz.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Nutq ta'sirchanligini oshirish va so'zlovchining ishonitirish maqsadini amalga oshirishga xizmat qiluvchi stilistik vositalardan biri **anaforadir**. Anafora- sintaktik konstruksiyalarni tashkil etuvchi komponentlar(soda gaplar)ning bir xil Grammatik forma bilan boshlanish usulidir. Aynan bir tushunchaning ma'nosini yoki fikrning mazmunini kengroq yoritish, unga urg'u berish, bo'rttirish, tinglovchining diqqatini ana shu tushunchaga yoki fikrga alohida jalb qilish lozim bo'lsa anaforadan foydalaniladi.[2,20] Anafora siyosiy nutqda eng ko'zga ko'ringan usullardan biri bo'lib, ko'p siyosatchilar tomonidan ishlatilgan. Bu usulga misol sifatida AQSh prezidenti Barak Obamaning 2008-yilda Demokratik partiyaning qurultoyida so'zlagan nutqidagi takroriy iboralarni keltirish mumkin. Obama o'z nutqida "Yes, we can" (Ha, biz qila olamiz) iborasini takrorlab, turli xil muammolarni yengish uchun umid va birlikni ta'kidlaydi:

"It was a creed written into the founding documents that declared the destiny of a nation. Yes, we can. It was whispered by slaves and abolitionists... Yes, we can. It was sung by immigrants as they struck out for distant shores... Yes, we can."

Bu misolda "Yes, we can" iborasi ketma-ket qaytarilib, tinglovchilarda birlik va umid tuyg'usini uyg'otadi va ularni hamkorlikka chorlash uchun aniq va kuchli xulosa beradi.[3]

Shuningdek, Martin Lyuter Kingning "I Have a Dream" nutqi ham mashhur anafora misolidir. U bu nutqida "I have a dream" iborasini bir necha bor takrorlab, o'zining kelajak haqidagi tasavvurlarini tinglovchilarga yetkazgan va teng huquqlar uchun umid uyg'otgan.[4]

Gap boshida aynan bir so'zning takrorlanishidan iborat bo'lgan anafora stilistik vositasi ritorikada va ayniqsa siyosatchilar nutqida nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Siyosiy diskursda ko'p qo'llaniladigan stilistik vositalardan yana biri bu **metaforadir**. Metafora so'zi yunoncha (metaphora) bo'lib, "ko'chirish", "ko'chirma" demakdir. Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi metafora deyiladi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat-holati, xususiyati, o'rni va paytga munosabati jihatidan o'xshashligiga asoslaniladi. Nutq jarayonida metaforadan o'rinli foydalanganda so'zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo'lib, nutq ta'sirchan, jozibali chiqadi. Nutqqa obrazlilik, bo'yoqdorlik berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir. Quyida ingliz siyosatchilari nutqida qo'llanilgan metaforalarni tahlil qilamiz:

Angliya bosh vaziri Boris Johnsonning nutqini tahlil qiladigan bo'lsak, unda turli ma'nodagi metaforalarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, 2019-yil 24-iyul kuni bosh vazir sifatida qilgan dastlabki nutqida u shunday deydi:

*"If there is one point we politicians need to remember, it is that the **people are our bosses.**"*

[5]

Bu yerda siyosatchi xalqni, Angliya xalqini, o'z xo'jayini sifatida tasvirlaydi. Bu orqali u xalqni boshqarishni emas, balki xalqqa xizmat qilishni o'z vazifasi deb bilishini bildiradi. Uning bosh vazir sifatidagi birinchi maqsadi ham odamlarni uch yillik siyosiy taranglikdan so'ng yorug' va yaxshi

kunlarga yetaklashdir. Bundan tashqari, u 20 ta yangi shifoxonani modernizatsiya qilish va ijtimoiy sohadagi inqirozga barham berish niyatini bildiradi. Siyosatchi bitta metafora orqali kelajakda oldiga qo'ygan maqsadlarini xalqqa yetkazib bera oladi. Siyosatdan tashqari ijtimoiy va ta'lim sohalarida ham erishilishi kerak bo'lgan marralarga eltuvchi yo'llarni xalqqa ochiq-ravshan ko'rsatib, xalqning ishonchini qozona olgan.

Boris Johnson COVID-19 bilan kasallanib sog'aygandan keyin qilgan birinchi podium nutqida koronavirusni **"jismoniy tajovuzkor"** (**"physical assailant"**)[6] deb atadi. Bosh vazir kasallik haqida gapirar ekan, koronavirusni "invisible killer" sifatida ta'riflab, unga boy ma'no bergan metaforalar bilan ifodalaydi. Siyosatchining fikricha, "Koronavirus nafaqat Angliyaga, balki butun dunyoga o'nlab yillar ichida duch kelgan eng katta xavfdir. Biz dunyo bo'ylab bu ko'rinmas qotilning halokatli ta'sirini kuzatyapmiz. Ushbu virusning global miqyosda tarqalishini to'xtatish uchun katta sa'y-harakatlarsiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi, chunki ventilatorlar, intensiv terapiya o'rinlari, shifokorlar va hamshiralar yetarli emas." Bosh vazir odamlarni uyda qolib, karantin qoidalariga qat'iy rioya qilishga va shu orqali kasallik tarqalishini oldini olishga o'z hissalarini qo'shishga chaqiradi.

Siyosiy media diskursida **ritorik so'roq gaplar** ham nutq ta'sirchanligini oshiradi, ular taklif va fikrlarga tinglovchilarning qiziqishini bilib olishda muhim sanaladi. Ritorik savollar siyosiy nutqlarda tinglovchini fikrlashga undash va e'tiborini muhim g'oyalarga jalb qilish uchun keng qo'llaniladi. Mashhur ritorik savollar misoliga AQSh prezidenti Jon F. Kennedining 1961-yilgi inauguratsiya nutqida ishlatilgan savollar kiradi. Uning mashhur so'zlari:

"And so, my fellow Americans: ask not what your country can do for you — ask what you can do for your country."[7]

Bu yerda Kennedy, aslida javob kutmasdan, amerikaliklarni vatanparvarlikka va mamlakat uchun faol xizmat qilishga chorlash uchun ritorik savoldan foydalanadi. Savol orqali u tinglovchilarni ichki mulohaza qilishga undaydi va ularda jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Shuningdek, Barak Obama o'zining 2008-yilda o'tkazilgan saylov kampaniyasi nutqlarida tez-tez ritorik savollarni qo'llagan. Masalan:

"Will we continue with the same failed policies, or will we change direction and ensure that our country meets the challenges of the 21st century?"[8]

Bu savollar orqali Obama o'zgartirishlarga ehtiyoj borligini urg'ulaydi va tinglovchilarni o'ylab, yangicha yo'lni qo'llab-quvvatlashga undaydi.

Ritorik savollar siyosatchilarga tinglovchilarni muhim masalalarga e'tibor qaratish va ularni ma'lum qarashlarga yo'naltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, **giperbola**, ya'ni mubolag'a, siyosiy nutqda muhim mavzularga urg'u berish yoki vaziyatning jiddiyligini ko'rsatish uchun keng qo'llaniladi. Bunga mashhur misollardan biri AQSh prezidenti Ronald Reyganning 1983-yildagi nutqida berilgan. U Sovet Ittifoqini **"Evil Empire" (Yovuz imperiya)**[9] deb ataydi. Bu ibora mubolag'a bo'lib, Sovet Ittifoqining xavfini va AQShning Sovetga nisbatan qarshilik ko'rsatish ahamiyatini oshirib ko'rsatishga xizmat qilgan.

Shuningdek, Uinston Cherrillning Ikkinchi jahon urushi davridagi nutqlarida ham giperbola usuli aniq ko'rinadi. Masalan, Cherrillning:

"We shall fight on the beaches, we shall fight on the landing grounds, we shall fight in the fields and in the streets, we shall fight in the hills; we shall never surrender..."[10]

Bu iboralarda Cherrill mubolag'ali so'zlar orqali ingliz xalqining qarshilik ko'rsatishga bo'lgan kuchli iroda va qat'iyatini ko'rsatib beradi, bu esa xalqni ruhlantirish va umid bag'ishlashga yordam bergan. Shu kabi giperbolik iboralar ommani safarbar qilishda, ularni birlashtirishda va muayyan g'oyalarga e'tiborni qaratishda juda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, diskurs faoliyati ko'p qirrali bo'lib, tilshunoslikda qo'llaniladigan semiotika konseptual apparatining ko'p qirrali taraqqiyoti nutq faolligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, real aloqa kontekstida uning funksional faoliyatiga oid lingvistik belgi tavsifining asosiy xususiyatlariga tayanib ish ko'rish imkonini beradi. Siyosiy nutq zamonaviy dunyoning ajralmas qismidir. Dunyodagi hozirgi vaziyat va ko'plab yangi siyosatchilarning paydo bo'lishi munosabati bilan ushbu turdagi diskursni tahlil qilish tadqiqot uchun yanada dolzarb mavzuga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samigova X.B., "Ingliz va o'zbek nutq madaniyatida ritorik aspektning chog'ishtirma taqdqiqi", -fan doktorlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2017, 76-bet
2. Mamajonov A, Qo'shma gap stilistikasi- T. Fan, 1990- 20b
3. "Obama's Speech Transcripts," The New York Times, 2008
4. King, M. L., "I Have a Dream," 1963, National Archives
5. <https://www.bbc.com/news/uk-politics-49102495>
6. [https://www.theguardian.com/politics/2020/apr/27/muggers-and-invisible-enemies-how-boris johnsons-metaphors-reveals-his-thinking](https://www.theguardian.com/politics/2020/apr/27/muggers-and-invisible-enemies-how-boris-johnsons-metaphors-reveals-his-thinking)
7. Kennedy, J. F., Inaugural Address, 1961, John F. Kennedy Presidential Library and Museum
8. Obama's Campaign Speech Transcripts, 2008, The New York Times
9. Reagan, R., Speech to the National Association of Evangelicals, 1983, The Ronald Reagan Presidential Library
10. Churchill, W., We Shall Fight on the Beaches, 1940, Churchill Archive